

28. Qaroqchilar kapitani to'rtta qaroqchiga xazinada nechta oltin, kumush va bronza tangalar borligini qog'ozga yozishni buyurdi. Quyidagi rasmda ularning yozuvlari ko'rsatilgan, lekin yozuvning bir qismi yo'qolgan.

	Oltin	Kumush	Bronza
Tom		9	11
El	7		12
Pit	10		10
Jim	9	10	


To'rtta qaroqchilardan faqat bittasi rost ma'lumotlarni yozgan, qolgan barchasi o'zlarining har bir yozuvida yolg'on ma'lumot bergan. Tangalarning umumiy soni 30 ta. Qaroqchilardan qaysi biri to'g'ri ma'lumot bergan?

- (A) Tom (B) El (C) Pit (D) Jim (E) aniqlab bo'lmaydi

29. Alisher A nuqtadan B nuqtaga boradi va darrov yana A nuqtaga qaytadi. Bobur esa B nuqtadan A nuqtaga boradi va darrov yana B nuqtaga qaytadi. Ular bir vaqtda yo'lga chiqishadi, bitta yo'ldan yurishadi va har biri doimiy tezlikda harakatlanadi. Alisherning tezligi Boburning tezligidan 3 marta kata. Ular birinchi marta harakat boshlanganidan 15 daqiqa o'tib uchrashishdi. Ular harakat boshlanganidan necha daqiqa o'tgandan so'ng ikkinchi marta uchrashadi?

- (A) 20 daqiqa (B) 25 daqiqa (C) 30 daqiqa
(D) 35 daqiqa (E) 45 daqiqa

30. $ABCDE$ beshburchakda $\angle A = \angle B = 90^\circ$, $AE = BC$ va $ED = DC$. AB tomonida joylashgan 4 ta nuqta ushbu tomonni 5 ta teng bo'laklarga bo'ladi. Bu nuqtalar orqali, rasmda ko'rsatilganidek, AB tomonga nisbatan perpendikulyar chiziqlar o'tkazilgan. To'q kulrang soha yuzasi 13 cm^2 , och kulrang soha yuzasi esa 10 cm^2 .



Butun beshburchakning yuzasini toping.

- (A) 45 cm^2 (B) 47 cm^2 (C) 49 cm^2 (D) 58 cm^2 (E) 60 cm^2








Tanlov 75 daqiqa davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mos keladi (A – E). Berilgan topshiriqlarning to'liq yechimini keltirish talab etilmaydi. Tanlovda maktab dasturidan tashqari savollar ham uchrashi mumkin.

2024 yil, 26-mart


7-8-sinflar

3 balli masalalar






1. Quyidagi arqonlarning qaysi birini kesmagan holda o'ng tomonda tasvirlangan arqonga aylantirib bo'lmaydi?





2. Figura bir xil beshburchak bo'laklardan tashkil topgan.



Quyidagi bo'laklardan qaysi biri figura markaziga joylashtirilsa, natijada ikkita yopiq chiziqlar hosil bo'ladi?



3. Rasmning chap tarafida ko'rsatilgan rombga ikkita to'g'ri burchakli uchburchak ulandi (rasmning o'ng tarafida ko'rsatilganidek). Natijada rombning yuzasi necha foizga oshdi?



- (A) 20% (B) 25% (C) 30% (D) 40% (E) 50%

4. Ifodaning qiymatini toping: $\frac{20 \times 24}{2 \times 0 + 2 \times 4}$

- (A) 12 (B) 30 (C) 48 (D) 60 (E) 120

5. Hasan rasmda ko'rsatilganidek, muntazam tetraedrning 4 ta uchini kesdi.



Hosil bo'lgan figuraning nechta uchi bor?

- (A) 8 (B) 9 (C) 11 (D) 12 (E) 15

6. Irodaning 1, 5 va 11 sonlari yozilgan 3 ta jetoni bor. U jetonlarini ketma-ket joylashtirib, 4 xonali son hosil qilmoqchi. U jami nechta turli xil 4 xonali sonlar hosil qila oladi?







- (A) 3 (B) 4 (C) 6 (D) 8 (E) 9

7. Idishda 5 ta turli xil mevalar bor:






Anora  yoqtiradi,

Bobur     yoqtiradi,

Komila     yoqtiradi,

Doniyor    yoqtiradi,

Sayyora   yoqtiradi. Ularning har biri idishdan o'zi yoqtiradigan 1 ta mevani oldi va har birining olgan mevalari turli xil.


 ni kim olgan?

- (A) Anora (B) Bobur (C) Komila (D) Doniyor (E) Sayyora

24. 50 ta o'quvchi aylana bo'ylab o'tirishibdi va koptok otishyapti. Koptokni olgan har bir o'quvchi uni o'zidan soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishdagi 6-o'quvchiga otadi. Keyin kim koptokni olsa, u ham shu tarzda yana otadi. Farhodga koptok 100 marta kelib tushdi. Nechta o'quvchiga shu vaqt davomida koptok bir marta ham kelmagan?

- (A) 0 (B) 8 (C) 10 (D) 25 (E) 40

25. Doston diagrammani butun musbat sonlar bilan to'ldirmoqchi. Tepa va o'rta qatorlardagi har bir katakdagi son o'zidan pastdagi ikki katakdagi sonlar ko'paytmasiga teng bo'lishi kerak. Tepadagi katakka u 720 sonini yozdi.




Doston n harfi joylashgan katakka nechta turli xil sonlarni yozishi mumkin?

- (A) 1 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 8

26. Fermer tovuq va o'rdak tuxumlarini sotadi. Unda 4, 6, 12, 13, 22 va 29 tadan tuxum sig'adigan savatlar bor. Xaridor kelib, qaysidir bir savatdagi barcha tuxumlarni sotib oldi. Natijada fermerda qolgan tovuq tuxumlari o'rdak tuxumlaridan 2 marta ko'p. Xaridor nechta tuxum sotib oldi?

- (A) 4 (B) 12 (C) 13 (D) 22 (E) 29

27. Katakli qog'ozda uch turdagi α , β va γ burchaklari rasmda ko'rsatilganidek chizilgan.



$\alpha + \beta + \gamma$ yig'indi nechaga teng?

- (A) 60° (B) 70° (C) 75° (D) 90° (E) 120°

20. 1 dan 9 gacha raqamlangan 9 ta karta pastga qaratilgan holda stolga qo'yildi. Aziza, Baxtiyor, Kumush va Dilfuza 2 tadan karta olishdi. Aziza "Mendagi sonlar yig'indisi 6 ga teng" dedi. Baxtiyor "Mening sonlarim bir-biridan 5 ga farq qiladi" dedi. Kumush "Mening sonlarimning ko'paytmasi 18 ga teng" dedi. Dilfuza "Mendagi sonlarning biri ikkinchisidan 2 marta katta" dedi. Ularning hammasi rost gapirishdi. Stolda qaysi karta olinmay qolgan?

- (A) 1 (B) 3 (C) 6 (D) 8 (E) 9

5 balli masalalar

21. 0 dan 9 gacha raqamlar, rasmda ko'rsatilganidek, gorizontaal va vertikal kesmalar yordamida tasvirlanishi mumkin.




Sardor 3 ta turli xil raqam tanladi. U tanlagan raqamlarda jami 5 ta gorizontaal va 10 ta vertikal kesmalar bor. U tanlagan raqamlarning yig'indisi nechaga teng?


- (A) 9 (B) 10 (C) 14 (D) 18 (E) 19

22. Tohir diagrammaning yana 2 ta kvadratini shunday bo'yamoqchiki, natijada hosil bo'lgan figuraning faqat 1 ta simmetriya o'qi bo'lishi kerak. U jami nechta turli xil usullarda buni qila oladi?

- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 5 (E) 6



23. Diagrammada to'g'ri to'rtburchak ichidagi 3 ta yarimdoiralalar ko'rsatilgan. O'rtadagi yarimdoira qolgan ikki doiraga urinadi, ular esa to'g'ri to'rtburchakning kichik tomonlariga urinadi. Katta yarimdoira to'g'ri to'rtburchakning katta tomoniga ham urinadi. To'g'ri to'rtburchakning katta tomonidan ikkita yarimdoiralargacha bo'lgan masofalar 5 cm va 7 cm ga teng.



To'g'ri to'rtburchak perimetri necha cm ga teng?

- (A) 82 (B) 92 (C) 96 (D) 108 (E) 120

8. Lift yoki 12 ta katta yoshli odamni, yoki 20 ta bolani ko'tara oladi. Liftda 9 ta katta yoshli odamlar bilan birga eng ko'pi bilan nechta bola ko'tarilishi mumkin?

- (A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 8

9. Jadvalga to'rtta har xil butun musbat sonlar yozildi va berkitildi. Har bir qator va ustundagi sonlar ko'paytmasi jadval yoniga yozilgan. Jadvalga yozilgan to'rtta sonning yig'indisini toping.

		6
		8
4	12	

- (A) 10 (B) 12 (C) 13
(D) 14 (E) 15

10. Rasmda ko'rsatilganidek, birga yig'ilgan 4 ta aravalarning uzunligi 108 cm. Huddi shunday birga yig'ilgan 10 ta aravalarning uzunligi esa 168 cm.




Bitta aravaning uzunligi qancha?

- (A) 60 cm (B) 68 cm (C) 78 cm (D) 88 cm (E) 90 cm

4 balli masalalar


11. Karima tort pishirdi va uni 10 ta teng bo'laklarga bo'ldi. U bitta bo'lakni yedi, keyin esa qolgan bo'laklarni idishga rasmda ko'rsatilganidek birin-ketin joylashtirdi.



Ikki qo'shni bo'laklar orasidagi burchakni toping.

- (A) 5° (B) 4° (C) 3° (D) 2° (E) 1°

12. Vali 4x4 o'lchamdagi shunday kvadrat yig'imoqchi: uning 4 ta ustuni va 4 ta qatoridagi barcha sonlar yig'indisi teng. U rasmda ko'rsatilgan bo'laklardan foydalanadi.



Ishni tugatish uchun unga quyidagi bo'laklardan qaysi biri kerak?

- (A)

1	1	3
---	---	---

 (B)

2	1	0
---	---	---

 (C)

1	2	1
---	---	---


 (D)

2	2	2
---	---	---

 (E)

2	2	3
---	---	---

13. Tomoni 10 m ga teng bo'lgan kvadrat, rasmda ko'rsatilganidek, 3 ta to'g'ri chiziq bilan bo'lingan. Bo'yalgan sohalar yuzalari A va B ga teng. $A - B$ nechaga teng?




- (A) 0 m^2 (B) 1 m^2 (C) 2 m^2
(D) 5 m^2 (E) 10 m^2

14. Pingvin har kuni baliq oviga boradi va bolalari uchun 12 ta baliq tutib keladi. Har safar u qaysi bolasini birinchi bo'lib uchratsa, o'sha bolasiga 7 ta baliq beradi. Ikkinchisiga esa 5 ta baliq beradi. Ikkala bolasi u bergan barcha baliqni yeyishadi. So'nggi bir necha kun davomida pingvinning bir bolasi 44 ta baliq yegan. Ikkinchi bolasi shu muddatda nechta baliq yegan?

- (A) 34 (B) 40 (C) 46 (D) 52 (E) 58

15. Javohirda ko'plab bir xil kublar bor. U bir kubning hamma tomonlariga bittadan kub yopishtirib chiqdi va rasmda ko'rsatilgan figurani hosil qildi.




U endi ushbu figuraning ham har bir tomoniga bittadan kub yopishtirib, uni kattalashtirmoqchi. Unga yana nechta kub kerak bo'ladi?

- (A) 18 (B) 16 (C) 14 (D) 12 (E) 10

16. Kenguru tepalikka sakrab chiqadi va tushadi. Pastga tushishdagi uning har bir sakrashi tepaga chishdagi sakrashidan 3 marta uzun. Tepaga har sakraganida u metr bosib o'tadi. Jami kenguru 2024 marta sakradi. U bosib o'tgan butun yo'lning uzunligi qancha?

- (A) 506 m (B) 1012 m (C) 2024 m (D) 3036 m (E) 4048 m

17. Jasur katta to'g'ri to'rtburchakni 4 ta kichik to'g'ri to'rtburchaklarga rasmda ko'rsatilganidek qilib ajratdi. Uchta kichik to'g'ri to'rtburchaklarning perimetrlari – 16, 18 va 24.




To'rtinchi to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.

- (A) 8 (B) 10 (C) 12 (D) 14 (E) 16

18. Yangi uzilgan qo'ziqorinlar 80% suvdan iborat. Quritilgan qo'ziqorinlarda esa 20% suv bo'ladi. Quritish jarayonida qo'ziqorin massasi necha foizga kamayadi?

- (A) 60 (B) 70 (C) 75 (D) 80 (E) 85

19. Usta Kamol katta kvadrat xonaning polini plitkalar bilan qoplamoqchi. Buning uchun u rasmda ko'rsatilganidek oltiburchakli va uchburchakli plitkalaridan foydalanadi.



Ustaning hisob-kitobi bo'yicha, unga jami 3000 ta atrofida oltiburchakli plitkalar kerak bo'ladi. Uchburchakli plitkalaridan unga taxminan nechta kerak bo'ladi?

- (A) 1000 (B) 1500 (C) 3000 (D) 6000 (E) 9000